


**BUXORO VILOYATI
TASHQI SAVDO AYLANMASI***2025- yil yanvar-noyabr oylari uchun dastlabki ma'lumot*

- I. Tashqi savdo aylanmasi
- II. Eksport hajmi
- III. Import hajmi
- IV. Metama'lumotlar
- V. Aloqador boshqa havolalar

I. TASHQI SAVDO AYLANMASI

2025- yil yanvar-noyabr oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 1 356,4 mln. AQSH dollariga yetdi va 2024- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 141,0 mln. AQSH dollariga yoki 11,6 % ga ko'paydi.

Tashqi savdo aylanmasi (mln. AQSH dollari)

TSAda eksport hajmi 311,4 mln. AQSH dollariga (2024-yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan 15,6 % ga ko'paydi) va import hajmi 1 045,0 mln. AQSH dollariga (10,5 % ga ko'paydi) yetdi. Hisobot davrida – 733,6 mln. AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.

**Buxoro viloyatining yirik hamkor davlatlar
bilan tashqi savdo aylanmasi dinamikasi (mln. AQSH dollari)**

Davlatlar	2023y.	2024y.	2025y.
Rossiya	381,9	349,1	479,7
XXR	215,4	367,3	265,2
Turkmaniston	82,8	95,0	136,5
Afgoniston	51,0	65,7	113,6
Eron	36,8	77,8	65,3
Qozog'iston	61,3	57,1	63,6
BAA	5,1	4,4	44,4
Turkiya	67,1	46,8	34,3
Tojikiston	22,6	12,1	18,7
Germaniya	28,2	34,2	18,2
Qirgiz Respublikasi	14,5	15,5	17,9
Daniya	0,1	0,1	14,8
Hindiston	11,9	9,7	13,4
Belarus	9,1	10,7	6,7
Polsha	10,5	6,1	6,1
Italiya	1,3	2,3	5,6
Pokiston	3,6	5,2	5,6
AQSH	0,6	6,9	4,6
Koreya Respublikasi	7,3	5,0	4,2
Ukraina	3,7	2,5	3,4

Buxoro viloyati 80 ta mamlakatlar bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Rossiyada (35,4 %), XXR da (19,6 %), Turkmanistonda (10,1 %) Afg'onistonda (8,4 %), va Eronda (4,8 %), qayd etilgan.

II. BUXORO VILOYATINING EKSPORTI TARKIBI


2.1- jadval

Tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2024- y.	2025- y.	2024- y.	2025- y.	2024- y.	2025- y.
Jami eksport	269,4	311,4	100,3	115,6	100,0	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	17,2	29,7	84,2	173,2	6,4	9,5
Ichimliklar va tamaki	2,1	2,1	67,6	99,9	0,8	0,7
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	15,5	8,7	140,4	56,0	5,8	2,8
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	59,5	102,2	100,9	171,8	22,1	32,8
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	4,1	0,4	29,8 m.	8,6	1,5	0,1
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	4,8	4,3	62,9	90,7	1,8	1,4
Sanoat tovarlari	124,2	92,3	98,0	74,3	46,1	29,6
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	11,7	22,5	184,5	192,6	4,3	7,2
Turli xil tayyor buyumlar	13,9	20,0	90,7	144,4	5,1	6,5
Xizmatlar	16,4	29,2	86,3	178,0	6,1	9,4

Mavzugadoirhavola: [Eksport tarkibi \(XSST-2008\) \(oylik\)](#)

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 90,6 % ni tashkil etib, asosiy ulush sanoat tovarlari (29,6 %), mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar (32,8 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (9,5 %) va mashinalar va transport asbob-uskunolari (7,2 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.


Buxoro viloyatining yirik eksportyor hamkor davlatlari (mln.AQSHdollari)



Mavzuga doir havola: [Eksport hajmi \(mamlakatlar kesimida, oylik\)](#)

2025-yil yanvar-noyabr oyida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Afg'oniston (36,3 %), Rossiya (29,3 %), Qozog'iston (7,5 %), Tojikiston (4,5 %), Turkmaniston (3,3 %), Qirg'iston (2,7 %), Germaniya (2,0 %), Pokiston (1,7 %), XXR (1,6 %) va Eron (1,5 %), kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 90,4 % ni tashkil etdi.

Xizmatlar eksporti tarkibi (mln. AQSH doll.)



Mavzuga doir havola : [Xizmatlar eksporti \(xizmatlar turi bo'yicha, oylik\)](#)

Xizmatlar eksporti hajmi 29,2 mln. AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining 9,4 % ini tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 78,0 % ga ko'paydi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport (11,0 %), safarlar (turizm) (13,0 %), telekommunikatsiya, kompyuter va axborot (6,2 %) va boshqa tadbirkorlik bilan bog'liq xizmatlar (66,1 %) hissasiga to'g'ri kelgan.

III. BUXORO VILOYATINING IMPORTI

2025-yilning yanvar-noyabr oyida import hajmi 1 045,0 mln. AQSH dollariga yetdi va 2024-yilning mos davriga nisbatan 10,5 % ga ko'paydi. Import tarkibida eng kata ulush, Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar (41,1 %), Mashinalar va transport asbob-uskunolari

(26,5 %), sanoat tovarlari (11,9 %) hamda kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (13,2 %) hisobiga to'g'ri keldi.

Buxoro viloyatining importi tarkibi


3.1- jadval

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan. % da	
	2024-y.	2025-y.	2024-y.	2025-y.	2024-y.	2025-y.
Jami import	945,9	1 045,0	118,5	110,5	100,0	100,0
Oziq-ovqat mahsulotlarivativirikhayvonlar	18,6	24,9	82,3	133,5	2,0	2,4
Ichimliklarvatamaki	0,7	2,7	8,8 m.	3,6 m.	0,1	0,3
Nooziq-ovqatxomashyo, yoqilg'idantashqari	18,3	34,4	76,2	188,2	1,9	3,3
Mineral yoqilg'i, yog'lashmoylarivashungao'xshashmateriallar	309,3	429,8	91,6	139,0	32,7	41,1
Hayvonvao'simliklarmoylari (yog'lari), yog'larvamumlar	1,2	0,6	118,5	52,7	0,1	0,1
Kimyoviyvositalarvashungao'xshashmahsulotlar	71,8	137,5	84,8	191,7	7,6	13,2
Sanoattovarlar	69,4	124,1	109,8	178,8	7,3	11,9
Mashinalarva transport asbob-uskunalar	445,2	277,4	176,7	62,3	47,1	26,5
Turli xil tayyor buyumlar	10,9	13,1	86,0	118,8	1,1	1,2
Xizmatlar	0,5	0,5	32,0 m.	88,6	0,1	0,0

Mavzuga doir havola: [Import tarkibi \(XSST-2008\) \(oylik\)](#)

Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2025-yilning yanvar-noyabr oyida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 99,1 mln. AQSH dollariga ko'paydi va 1 045,0 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 0,5 mln. AQSH dollariga yetdi.

Buxoro viloyatining yirik importyor hamkor davlatlari (mln. AQSH dollari)



2025-yil yanvar-noyabr oylarida Buxoro viloyati 71 ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yirik hamkor davlatlar Rossiya (37,2 %), XXR (24,9 %), Turkmaniston (12,1 %), Eron (5,8 %), BAA (4,2 %), Qozog'iston (3,8 %) va Turkiya (2,9 %) jami importning 90,9 % ni tashkiletdi.

Mavzuga doir havola: [Xizmatlar importi \(xizmatlar turi bo'yicha, oylik\)](#)

Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi tadbirkorlik bilan bog'liq xizmatlar (100,0 %), ga tegishli bo'ldi.

IV. METAMA'LUMOTLAR

*Tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (TIF TN) bilan birgalikda, BMTning Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarini XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

Tashqi savdo statistikasi, tovarlar va xizmatlar tashqi savdosi asosida shakllantiriladi: tovarlar tashqi savdosi statistikasini shakllantirishda dastlabki ma'lumotlar bo'lib, Bojxona qo'mitasining bojxona yuk deklaratsiyasining ma'lumotlari hamda Milliy statistika qo'mitasining rezidentdan norezidentga o'tuvchi, davlat chegarasini kesib o'tiyulgan va bojxona deklaratsiyasida hisobga oliniyulgan tovarlarni statistik kuzatuvlari hisoblanadi; tashqi savdo xizmatlar statistikasini shakllantirish statistika kuzatuvlari asosida amalga oshiriladi.

V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLALAR

[Tashqi savdo aylanmasi hajmi \(yillik\)](#)
[Tashqi savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(yillik\)](#)
[Tashqi savdo aylanmasi hajmi \(mamlakatlar kesimida, yillik\)](#)
[Tashqi savdo aylanmasi o'sish sur'ati \(mamlakatlar kesimida, yillik\)](#)
[Eksport hajmi \(hudular kesimida, yillik\)](#)
[Eksport hajmi \(mamlakatlar kesimida, oylik\)](#)
[Import hajmi \(yillik\)](#)
[Importning o'sish sur'ati \(yillik\)](#)
[Importning o'sish sur'ati \(yillik\)](#)

Chop etishga masul: Xizmatlar va savdo statistikasi bo'limi	Boshqarma boshlig'i: U.Djumanazarov Tel: +998655058000 (8000)	Ijrochi: Z. Saidova Tel: +998655058000 (8040) e-pochta: : info@buxstat.uz buxstat@exat.uz	Manzil: 100170, Buxoro sh., S.Ayni ko'chasi, 3
--	--	--	--